

QIZILQUM PALEOLIT DAVRI YODGORLKLARI O'RGANILISH  
TARIXI.

**Pardayev Lazizjon Ahmad o'g'li** Samarqand davlat universiteti  
Arxeologiya kafedrası magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qizilqum hududidan topilgan paleolit davri yodgorliklaridan biri bolgan Ko'kayoz yodgorligining topilishi va undagi arxeologik topilmalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qizilqum, nukleus, uchirindi, bifas, qirg'ich, kvarsit, kremniy, levallua, Selet madaniyati, Markaziy Yevropa, A.V. Vinogradov, Yesen 2.

**Abstract:** This article discusses the discovery of the Kokayoz monument, one of the Paleolithic monuments found in the Kyzylkum region, and the archaeological findings in it.

**Keywords:** Kyzylkum, nucleus, uchirindi, biface, kergich, quartzite, silicon, levallois, Selet culture, Central Europe, A.V. Vinogradov, Yesen 2.

1999-yilning kuzida O'zbek-Fransuz geografik-arxeologik xalqaro ekspeditsiyasi Markaziy Qizilqumning shimoliy-sharqiy qismidagi Ko'kayoz botig'ida tadqiqot ishlari olib bordi. Ushbu ekspeditsiya ishtirokchisi, O'zR FA Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi M.M. Xo'janazarov tomonidan Ko'kayoz botig'ining shimoliy sohillaridagi uchta punktdan 100 ga yaqin tosh buyumlar yig'ib olingan edi.

1999-yilda topilgan Ko'kayoz 1 yodgorligi shu nomli botiqning shimoliy-g'arbiy sohilida, Ko'kayoz ovulidan 1,5 chaqirim g'arbroqda joylashgan. Arxeologik materiallar tekis va botiqqa qarab biroz egilgan yer yuzasidan yig'ib olingan. Qiyalik bo'ylab tepaga qarab materiallar kamayib, butunlay yo'qolib boradi. Topilmajoyning ustki qatlami 50 sm gacha yetadigan qumlar bilan qoplangan. Tepalikning katta qismi jarliklar bilan kesilib, buzilib ketgan. Bu yerdan yig'ib olingan tosh buyumlar orasidan 20 ta artefakt aniqlangan. Ushbu toshlar orasida nukleuslar, uchirindilar, bittadan bargsimon tipdagi bifas va qirg'ich aniqlangan. Ushbu buyumlarni yasashda xom-ashyo sifatida kulrang kvarsit va ba'zan jigarrang kremniydan foydalanilgan.

Ko'kayoz 1 to'plamining nukleuslari 3 dona bo'lib, ular orasida bitta ko'p zarb maydonli, bitta uchirindilar chaqmoqlashga mo'ljallangan levallua tipidagi o'zak va bitta ikki zarb maydonli nukleus aniqlangan. Qolgan buyumlar orasida 15

ta uchirindi bo‘lib, ulardan 7 tasi butun (2 ta yirik, 4 ta o‘rta hajmli va 1 ta mayda uchirindilar), 2 dona levallua tipidagi hamda 6 ta proksimal qismi singan uchirindilardan iborat. Butun uchirindilarning zarb maydonchalari xarakteriga ko‘ra asosan tekis maydonchali, ammo chiziqsimon va fasetkalashtirilgan tipdagilari ham mavjud. Bundan tashqari, to‘plamning uchirindilari orasida birlamchi hamda yarim birlamchi va kombeva tipidagilari ham aniqlangan. To‘plam uchirindilari dorsallarining xarakteriga ko‘ra unipolyar, bipolyar hamda ortogonal yo‘nalishdagilari uchratilgan.

Ko‘kayoz 1 kompleksining tosh qurollari bittadan bifas hamda qirg‘ichlardan iboratligi aniqlangan. Bifasning hajmi 143x39x18 mm bo‘lib, kulrang kvarsitdan ishlangan va qoplama yo‘nishlar hamda ikki taraflama retushlar yordamida qirralari ishlov berilgan. Ushbu bifas deyarli o‘zining uzun o‘qi bo‘ylab singan. F. Bord tipologiyasiga asosanib, tadqiqotchilar ushbu bifasni bodomsimon shaklli tipga xos, deb topishib, analogiya sifatida Ustyurtning Yesen 2 to‘plamidagi bifaslar bilan taqqoslashgan.

To‘plamdagi ikkinchi tosh qurol yirik uchirindidan ishlangan bo‘lib, uning hajmi 109x106x26 mm. Uning zarb maydonchasi tekis va orqa tarafga 125° egilgan. Qirg‘ich ham kulrang kvarsitdan ishlangan bo‘lib, uning bo‘rtib chiqqan chap laterali dastavval yo‘nib yupqalashtirilgan, so‘ngra tishsimon retushlar yordamida ishlov berilgan. Ish qirrasining supportiga nisbatan qiyaligi 68° ni tashkil etadi. Qirg‘ichning ish yuzasi bo‘rtib chiqqan va qirrasini egri-bugri shaklda.

1999-yilda ochilgan ikkinchi punkt - Ko‘kayoz 2, botiqning shimoliy sohilida, Ko‘kayoz ovulidan 15 km sharqroqda joylashgan. Bu yerdan 67 ta artefakt yig‘ib olingan. Ular orasida nukleuslar, plastinalar, uchirindilar, bifaslar, bir dona qayroqtosh hamda tosh bo‘lakchalari aniqlangan. To‘plamda nukleuslar atigi 4 dona va ular orasida ko‘p zarb maydonli va gardishsimon o‘zaklar mavjud.

Ko‘kayoz 2 kompleksida nukleuslarni uzunasiga unipolyar, kamroq bipolyar hamda radial-markazga intiluvchi tarzda chaqmoqlaganlar. Ba‘zan radial chaqmoqlash levallua texnikasiga o‘sib o‘tgan. Ammo to‘plamda ortogonal chaqmoqlash texnikasi ko‘pchilikni tashkil qiladi. To‘plamdagi yo‘nilg‘ilar dorsallarining xakteri nukleuslar tiplariga to‘liq mos keladi.

Ko‘kayozdagi plastinalar fasetkalashtirilgan va ikki qirrali zarb maydonchalarga ega. Ularning dorsallaridagi izlar birida unipolyar, birida esa ortogonal holatda joylashgan.

Ko‘kayoz 2 kompleksining tosh qurollari ikkita bargsimon bifaslar sinig‘i va bitta qo‘ndoqli bifasdan iborat. Ularning barchasi kulrang kvarsitdan yasalgan.

Chop etilgan materiallarga va rasmlarga ko‘ra Ko‘kayoz 2 bargsimon bifaslari mualliflar tomonidan to‘g‘ri aniqlangan, masalan, qo‘ndoqli bifaslar haqiqatda paleolit davri uchun xarakterlidir.

Ko‘kayoz 3 yodgorligi botiqning shimoliy qirg‘og‘ida, ikkinchi punktdan 5 km sharqroqda joylashgan. To‘plamda 15 ta artefakt aniqlangan bo‘lib, ulardan bittasigina jigarrang kremniydan, qolganlari kulrang kvarsitdan ishlangan. Bu yerdan yig‘ilgan materiallar orasida nukleuslar, plastinalar, uchirindilar hamda bargsimon bifaslarning siniqlari mavjud. Materiallar sonining kam bo‘lganligi uchun mualliflar tomonidan statistik tahlillar amalga oshirilmagan.

To‘plamda 5 ta nukleuslar bo‘lib, ular orasida plastinalar olishga mo‘ljallangan ikki maydonli prizmatik, ko‘ndalang chaqmoqlangan, ko‘p zarb maydonli, protoprizmatik va uchirindilarga mo‘ljallangan levallua tipidagi nukleuslar mavjud.

Ko‘kayoz 3 industriyasida yo‘nilg‘ilar 6 donani tashkil qiladi. Ulardan 3 tasi uchirindi va 3 tasi plastinalardan iborat. Ular to‘plamda mavjud bo‘lgan nukleuslarga to‘liq mos keladi. Plastinalardan biri nukleusning ustki qismidan sindirib olingan texnik yo‘nilg‘i bo‘lib, uning zarb maydonchasi fasetkalashtirilgan va dorsalidagi negativlari unipolyar ravishda joylashgan. Ikkinchi plastina ham uzunasiga unipolyar xarakterdagi dorsalga ega. Uning zarb maydonchasi tekis. Uchinchi plastina proksimal parcha bo‘lib, dorsalidagi izlari parallel-unipolyar ravishda joylashgan. Uning zarb maydonchasi chiziqsimon. Ushbu plastina chap lateralining uch qismida kichik o‘yiq mavjud.

Ko‘kayoz 3 kolleksiyasining uchirindilari zarb maydonchalaridan 2 tasi fasetkalashtirilgan va 1 tasi tekis xarakterga ega. Dorsallarining xarakteriga ko‘ra ushbu uchirindilardan 2 tasi markazga intiluvchi va 1 tasi ortogonal ko‘rinishga ega. To‘plam uchirindilaridan biri Sire aksidenti va ikkitasi levallua tipidagi yo‘nilg‘ilar sifatida tasniflangan.

Bundan tashqari, Ko‘kayoz to‘plamlaridagi bifaslar seriyalarining topilishi O‘rta Osiyo paleolitshunosligida Yesen 2 yodgorligidan keyingi ikkinchi hodisa bo‘lib, ular A.V. Vinogradov ta‘kidlaganidek, bargsimon bifas-tig‘lardir<sup>1</sup>.

Ustyurtning Borsa-Kelmes pasttekisligi qirg‘oqlarining janubiy chegaralaridan topilgan va boy arxeologik materiallarni bergan Yesen 2 yodgorligi shu nomli tepalikda joylashgan. U Ye.B. Bijanov<sup>2</sup> va A.V. Vinogradovlar

<sup>1</sup> Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М., 1981.-С. 56-57.

<sup>2</sup> Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН УзбССР, № 3, 1979.- С. 48;

tomonidan 1977-yilda topilgan.<sup>3</sup> Ushbu topilmajoy maydoni 90x40 kv metrlik uncha baland bo'lmagan usti tekis tepalikda joylashgan. "Bu yerda kuchli kremniylashgan oxaktoshlarning yemirilayotgan konlari mavjud"<sup>4</sup>. Ammo, Yesen 2 va Shaxpaxti materiallari bilan tanishishimiz shuni ko'rsatdiki, ushbu yodgorliklar materiallari oxaktosh emas, balki fikrimizcha, oxaktoshlashgan ko'l kvarsiti ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu tosh jinsining sochilib yotgan bo'laklari orasida 200 ta buyumdan iborat tosh kolleksiya yig'ib olingan. Ushbu kolleksiyaning qariyb 15 tasi tabiiy tosh bo'laklari bo'lsa, qolganlari shubhasiz artefaktlardir.

Yesen 2 ustaxonasidan topilgan 15 ta tugallangan tosh qurollarning katta qismi – bu bifasial ishlov berilgan yirik va yupqalashtirilgan bodomsimon bifas – paykonlar hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi bifaslarning siniqlaridir va bu hol yodgorlikning xarakterini belgilaydi, ya'ni Yesen 2 ustaxonadir. 1977-yilgi yig'ilgan materiallar orasida saqlanib qolgan yagona butun bifasga qarab ularning shakli va hajmlarini tasavvur qilish mumkin. Qolgan bifaslarning hajmi nisbatan kichikroq va barchasining bir uchi yumaloq hamda qirralari notekis to'lqinsimondir. Bu bifaslar qo'pol va ko'p hollarda qoplama xarakterga ega dag'al yo'nishlar yordamida ishlangan va ba'zan qirralari mayda retushlar bilan tekislangan. Ular butun perimetri bo'ylab o'tkir qirraga ega. Ularning ayrimlarining faqat qirralarigagina yo'nilgan (ba'zan faqat bir yuzadan), ammo bunday buyumlar kam sonli<sup>5</sup>. Ehtimol, ularning bir qismi hali tugallanmagan buyumlardir. Ushbu buyumlar Yesen 2 da bifaslar yasash uchun maxsus yo'nilgan yo'nilg'ilar emas, balki hajmi to'g'ri keladigan kremniylashgan oxaktosh plitkalaridan foydalanilganligini aniqlash imkonini beradi. To'plamdagi bifaslar ko'pchiligining ko'ndalang kesmada yassiligi ham bu haqda guvohlik beradi<sup>6</sup>.

Har ikkala yodgorliklarning tosh buyumlarni yasashda qo'llanilgan xom-ashyosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Ko'kayoz punktlarida va Yesen 2 da ham tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, kremniylashgan ohaktoshlar emas, balki ko'l kvarsitidan foydalanilgan. Ma'lumki, ko'l kvarsitlari tinch holatdagi suv havzalarining sohillarida qumlarning birikishi oqibatida hosil bo'ladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, har ikkala yodgorliklarda ham xom-ashyo sifatida botiqlarning sohillarida joylashgan ko'l kvarsiti qoyalardan foydalanilgan.

Selet madaniyati Markaziy Yevropadagi mahalliy o'rta paleolitning alohida fasiyasi bo'lib, keyinchalik ushbu industriyalar tashqi ta'sirlar natijasida

<sup>3</sup> Виноградов А.В., Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с Юго-Восточного Устюрта // АО, 1977. М., 1978.- С. 522;

<sup>4</sup> Ўша ерда, 521 б.

<sup>5</sup> Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН Узб.ССР, № 72. Ташкент, 1979.- рис. 2, 1, 3;

<sup>6</sup> Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М., 1981. -С. 55-56;

leptolitizasiyaga uchragan, chunki mahalliy muste materiallarida soʻngi paleolit elementlari juda zaif boʻlgan.

Selet madaniyati yodgorliklari koʻl yotqizilaridagi kvarsit toshlarga ishlov berilgan ustaxonalar boʻlgani uchun ularning industriyalari orasida tugallanmagan va tashlandiq holatdagi bargsimon bifaslar uchraganligi ularning sanasini aniqlash murakkab masaladir. Aynan ushbu taʼrif Koʻkayoz punktlariga ham taalluqlidir.

Selet madaniyatining uchta fazaga ajratilib, uning quyi fazasi muzlik oraligʻi davriga, yaʼni radiometrik jihatdan er. av. 41700 - 37700 yillarga toʻgʻri keladi<sup>7</sup>.

Selet madaniyatning keyingi taraqqiyoti Bukk togʻlarida yaxshi aks etgan boʻlib, ularning tosh qurollari orasida soʻngi paleolit davri elementlari nisbatan ancha oʻsishi kuzatiladi. Ularning radiometrik sanasi er. av. 32580+420 ming yillar bilan belgilangan. Selet madaniyatning ushbu fazasi dastlabki leptolitizasiyalashgan bosqichi boʻlib, u Gʻarbiy Yevropaning orinyak madaniyati bilan zamondoshdir.

Selet madaniyati industriyalarida plastinalar chaqmoqlash indeksi juda past darajadali xarakterlidir (8,3-10,3%). Ushbu taʼrifni ham Koʻkayoz punktlari industriyalariga qoʻllash mumkin. Koʻkayozda garchi, plastinalar olishga moʻljallangan nukleuslar uchrasa-da, plastinalar foizi kam va toʻgʻri qirrali pichoqsimon plastinalar uchramaydi.

K. Valosh Moraviyadagi seletga oid materiallarning leptolitizasiya jarayonlarini mahalliy taraqqiyot natijasida emas, balki orinyak madaniyatining taxsirida sodir boʻlganligini yoqlab chiqdi. Brno shahri yavinidagi Boxunich yodgorligi Moraviyadagi seleta madaniyatining ilk va levallua fasiyasiga oidligi aniqlandi<sup>8</sup>.

Shuningdek, Boxunichning kvarsitdan ishlangan bargsimon bifasli industriyasi oʻrta paleolitdan soʻngi paleolitga oʻtish davrini oʻzida aks ettirishi va u orinyak bilan tengdosh ekanligi qayd etilgan<sup>9</sup> (Svoboda i Svoboda, 1985).

Shunday qilib, Koʻkayozdagi singari qadimgi koʻllar botiqlari sohillarida hosil boʻlgan kvarsitdan ishlangan bargsimon bifasli va afrim soʻngi paleolit davri elementlariga ega (qirgʻichchalarli) industriyalar Markaziy Yevropa hudularidan koʻplab topilgan. Bunga yuqorida taʼkildangan selet madaniyatiga oid Boxunich, Bobinich va boshqa yodgorliklar materiallari misol boʻla oladi. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra, Markaziy Yevropadagi selet madaniyati oʻrta

<sup>7</sup>Alsworth-Jones, P. 1975. The Paleolithic leafpoint assemblages in central and south eastern Europe. Cambridge, Ph. D. Dissertation. 300.

<sup>8</sup>VALOCH K., 1976. Die altsteinzeitliche Fundstelle in Brno-Bohunice. Prague. VALOCH K., 1982. Neue palaolithische Funde von Brno-Bohunice. Casopis Moravkeho Muzea, 67 : 31-47.

<sup>9</sup>SVOBODA J., SVOBODA H., 1985. Les industries de type Bohunice dans leur cadre stratigraphique et ecologique. L'Anthropologie, 89: 505-514.

paleolitning oxirlarida paydo bo'lib, asta-sekin tashqi ta'sirlar natijasida so'ngi paleolit bosqichiga qadam qo'yadi va avvalgi mahalliy an'analarni, ya'ni bifaslar ishlab chiqarishni saqlab qoladi. Markaziy Yevropa hududlarida ham kvarsitdan bifaslar ishlab chiqarilgan ochiq tipdagi yodgorliklar (xuddi Ko'kayozdagi singari) uchtaxonalar deb tan olingan va so'ngra bu bifaslar yodgorliklarga olib ketilgan.

Ko'kayoz komplekslari ustaxonalar bo'lganligi sababli ularda toshga ishlov berishning turli bosqichlarida qoldirib ketilgan tosh buyumlarning uchrashi, ularni texnik-tipologik jihatdan davrini aniqlash masalasini murakkablashtiradi. Ularda qo'pol tosh ushatg'ich yordamida sindirilgan nukleussimon bo'laklardan to yuqori darajada ishlov berilgan (ezish texnikasi yordamida, otjimnaya texnika) tosh qurollar ham uchraydi. Ammo, ular tashqi qoplangan patinasiga ko'ra monoton xarakterda bo'lganligi ularni bir davrga oidligidan guvohlik beradi.

Tosh qurollar orasida so'ngi paleolit davri uchun xos bo'lgan qirg'ichchalar, G.V. Shelinskiy tomonidan selet madaniyati yodgorliklarida qayd etilganidek, tishimon qurollar, ayrim kesgichlar, tosh pichoqlar uchraydi.

A.V. Vinogradov Yesen 2 materiallarini ashel yoki ashel-mustye davri bilan emas, balki o'rta paleolitning oxiri yoki so'ngi paleolit davrining boshlari bilan sanalashni taklif qiladi<sup>10</sup>.

Shunday qilib, Yesen 2 industriyasining A.V. Vinogradov tomonidan taklif qilingan sanasiga, ya'ni so'ngi paleolit davrining boshlariga oidligiga qo'shilsa bo'ladi. Ko'kayoz komplekslari avvalo, artefaktlar yuzasini qoplangan patinasi hamda texnik-tipologik jihatdan Yesen 2 industriyasidan yoshroq ko'rinadi.

Ko'kayoz industriyalarining genezisi masalasi selet madaniyati yodgorliklari guruhining kelib chiqishi masalasidan ham murakkabroqdir. Chunki, Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida Ko'kayozga o'xshash industriyalar uchramaydi. Shuning uchun ushbu masala bugungi kunda ochiq qoldirilmoqda. Nima bo'lganda ham, o'ziga xos Ko'kayoz industriyalarining topilishi O'rta Osiyo hududlarida so'ngi paleolit davrining yana bir ajoyib madaniyati hukm surganligidan dalolat beradi.

## 1. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

2. Alsworth-Jones, P. 1975. The Paleolithic leafpoint assemblages in central and south eastern Europe. Cambridge, Ph. D. Dissertation.
3. SVOBODA J., SVOBODA H., 1985. Les industries de type Bohunice dans leur cadre stratigraphique et ecologique. L'Anthropologie

<sup>10</sup> Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М., 1981.-С. 57;

4. VALOCH K., 1976. Die altsteinzeitliche Fundstelle in Brno-Bohunice. Prague. VALOCH K., 1982. Neue palaolithische Funde von Brno-Bohunice. Casopis Moravkeho Muzea
5. Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН Узб.ССР, № 72. Ташкент, 1979.
6. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. М., 1981.
7. Виноградов А.В., Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с Юго-Восточного Устюрта // АО, 1977. М., 1978.

